

## XALQ TA'LIMI TIZIMINING XX ASR 30– YILLARIDAGI HOLATI

*Abduraxmanova Jummagul Nomazovna, Toshkent iqtisodiyot va  
pedagogika universiteti dotsenti, t.f.n.*

## THE STATE OF THE PUBLIC EDUCATION SYSTEM IN THE 1930s OF THE TWENTIETH CENTURY

*Abdurakhmanova Jummagul Nomazovna, Associate Professor,  
Candidate of Historical Sciences, Tashkent University  
of Economics and Pedagogy*

## СОСТОЯНИЕ СИСТЕМЫ НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В 1930-Х ГОДАХ

*Абдурахманова Джуммагуль Номазовна, доцент, кандидат  
исторических наук, Ташкентский университет  
экономики и педагогики*

**Annotatsiya:** Maqolada XX asr 30–yillarida maorif tizimi, maktablarning ahvoli, maktablarning o'qituvchi–xodimlar bilan ta'minlanganligi, mutaxassis kadrlarning yetishmaslik holati, sovet hokimiyati tomonidan amalga oshirilgan xalq ta'limini "sinfiy dushman"dan tozalash ishlarining maorif tizimiga salbiy ta'sirini va uning ko'rinishlari yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Sovet hokimiyati, sovet ta'lim tizimi, o'qituvchi–xodimlar, kadrlar muammosi, "proletar qatlam", "ishonchsizlik", "sinfiy dushman", tozalash.

**Abstract:** The article covers the state of the education system in the 1930s of the twentieth century, the condition of schools, the provision of schools with teaching and staff personnel, the situation of shortage of qualified specialist, as well as the negative impact of the measures carried out by the Soviet authorities to "cleanse" public education of "class enemies" and the manifestations of this impact on the education system.

**Keywords:** Soviet power, Soviet education system, teaching staff, personnel problem, "proletarian stratum", "lack of trust", "class enemy", purge.

**Аннотация:** В статье рассматривается система образования 30 гг XX века, состояние школ, обеспечение школ преподавательским составом, нехватка квалифицированных кадров и политика в борьбе с «классовым врагом» и в образовании, которая негативно повлияла на это направление.

**Ключевые слова:** советская власть, советская система образования, преподавательский состав, кадровая проблема, «пролетарский класс», «недоверие», «классовый враг», чистка.


**Kirish.** O'zbekiston hududida ta'lim tizimi sovet hokimiyati yillarida 1917-yil oxiridan boshlab jiddiy to'siq va qiyinchiliklarga uchradi. Murakkab va ziddiyatli vaziyatni boshdan kechirdi. Hokimiyat tepasiga kelgan kommunistlar "lenincha sotsializm qurish" nazariyasini qo'llab, o'lkada sotsialistik tuzum asoslarini qura boshladilar. Mahalliy sharoitni hisobga olmasdan olib borilgan siyosatga qarshi bildirilgan har

qanday fikrlar, chiqishlar qattiq ta'qib ostiga olindi, ayovsiz jazolandi. Bu hol o'z navbatida ta'lim tizimini ham qamrab oldi.

1920-yillarning ikkinchi yarmi – 1930 yillarda O'zbekistonda sovet hokimiyatining ma'muriy–buyurqbozlik va zo'raonlik siyosati xalq xo'jaligining barcha sohalarini shu jumladan barcha ta'lim tizimini ham qamrab oldi. Tashkil etilgan ta'lim tizimida ham asosiy e'tibor



<https://orcid.org/0009-0008-1580-9191>  
e-mail:  
abduraxmanovajummagul@gmail.com



kommunistik partiya mafkurasi va g'oyasidan kelib chiqqan holda ish olib borish yo'lga qo'yildi.

**Muhokama va natijalar.** Ta'lim sohasi uchun kerakli bo'lgan xodimlar asosan pedagogika bilim yurtlarida tayyorlanar edi. Bu hol ham ayrim viloyatlarda ta'lim tizimida kadrlar muammosi kelib chiqishiga ham sabab bo'ldi. Ko'p hollarda ayniqsa qishloq joylarda o'qituvchilar yetishmasdi, borlari ham ko'pincha o'z ishlarini tashlab ketishardi. 1934-yil Qashqadaryo viloyatidagi Dehqonobod tumanida 2–3 oylab o'qituvchilar maoshi berilmaganligi, maosh kamligi sababli 8 ta o'qituvchi, 3 ta mudir ishdan bo'shab ketgan[1]. Shu kabi sabablar tufayli ko'plab o'qituvchilarning ishdan ketib qolishlari ta'lim tizimiga salbiy ta'sir qilib, bu sohada kadrlar muammolarini keltirib chiqarar edi. Ayniqsa, ta'lim sohasining ma'muriy-buyruqbozlik usuli bilan boshqarilishi, ko'pgina ko'zga ko'ringan ta'lim sohasi xodimlarining qatag'on qilinishi mutaxassis kadrlarning kamayishiga, kadrlar muammosining paydo bo'lishiga, bilim saviyasi past "ishonchli" qatlamlarning yuzaga keltirilishi ta'lim tizimini borgan sari siyosiy lashib, mafkuralashib borishiga olib keldi. Ayniqsa "sinfiy dushman" izlab topib, uni yo'q qilishda ta'lim tizimiga juda katta e'tibor qaratildi. Chunki, ta'lim sohasida o'rnashib olgan "sinfiy dushman" sovet hukumati uchun o'ta xavfli hisoblanardi. Ta'lim jamiyat hayotida unga ta'sir ko'rsatishda muhim va ahamiyatli rol o'ynaydi. Shu sababli ham ta'lim sohasini "sinfiy dushmandan" tozalash maqsadida hatto maxsus qarorlar ham qabul qilingan. Masalan, VKP(b) MQ O'rta Osiyo Byurosi 1933-yil 27-martida o'qituvchi kadrlar safini "sinfiy dushmandan" tozalash haqida qaror qabul qildi va bu qarorning dastlabki natijalari 1933-yil 25-aprelida bo'lib o'tgan O'rta Osiyo bo'yicha partiyaning madaniy sohasiga bag'ishlangan kengashida muhokama qilindi[2]. Ta'lim sohasini "sinfiy dushmandan" tozalash bilan birga, ziyoli kadrlarni tayyorlashda sinfiy jihatdan ishonchli, aholining "mehnatkash" tabaqalaridan chiqqan kishilarni tanlab olish kerak degan g'oya ilgari surildi. Bu ishni amalga oshirishga jiddiy kirishib ketildi. Ko'plab o'qituvchilar ijtimoiy kelib chiqishi "ishonchsiz" bo'lganligi tufayli ishdan bo'shatildi. Masalan, birgina Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumanidan 17 ta o'qituvchi ijtimoiy kelib chiqishi "ishonchsiz" bo'lganligi tufayli ishdan bo'shatildi[3].

Ijtimoiy kelib chiqishi "ishonchsiz" bo'lgan kishilar o'rniga "mehnatkash" tabaqadan chiqqan kishilarni tanlab olish g'oyasi sovet tuzumining ichki mohiyatidan kelib chiqqan edi. Chunki, avvaldan yaxshi ma'lumki, aqliy va mantiqiy mushohada etish darajasi qancha past bo'lsa, savollar ham, noroziliklar ham shuncha kam bo'ladi. Shuning uchun ham ta'lim xodimlarining tarkibini ijtimoiy jihatdan ishonchli bo'lgan "mehnatkashlar" hisobiga soddalashtirib, ular orasidagi eng zakovatli va omilkor qatlamni siqib chiqarish maqsad qilib qo'yildi. Bu "madaniy inqilob"ning asosiy tezislardan biri bo'lib, "shaklan milliy, mazmunan sotsialistik madaniyat"ni vujudga keltirishdan iborat edi. Bu g'oya sovet hokimiyatining barcha o'n yilliklari davomida yashab keldi. XX asr 30–yillarda esa uni amalga oshirish uchun dastlabki qadamlar qo'yildi. Ta'lim tizimi uchun kadrlar tayyorlash yuqorida aytganimizdek, "mehnatkashlar" ya'ni "proletar qatlamdan" boshlangani bejiz emas edi. O'sha yillarda ta'lim tizimidagi mavjud bo'lgan kadrlar muammosini hal qilish uchun komsomolga qabul qilingan juda ko'plab yoshlar qisqa muddatli kurslarda o'qitilib, maktablarga muallim sifatida safarbar qilinib yuborildi. Buning natijasida respublikada o'qituvchilar soni 1928–1929-o'quv yilida 5,5 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, 1932–1933-o'quv yilida 19 ming kishiga yetdi. 1941-yilga kelib esa o'qituvchilar soni 42 ming kishini tashkil etdi[4]. Ta'lim sohasiga qisqa muddatli kurslarda tayyorlanib, ijtimoiy jihatdan "mehnatkashlar" qatlamidan bo'lgan, safarbar qilingan komsomollar qabul qilingan edi. Maqsad mutaxassislarning ko'pchiligi "begonalar" ya'ni ijtimoiy kelib chiqishi jihatidan tuzum mafkurasiga to'g'ri kelmaydiganlarni yo'qotish, ularni ijtimoiy muhitga o'rnashib borishiga yo'l qo'ymaslik edi.

XX asr 30–yillari birinchi yarmida avj olgan bu tadbir amalda ziyoli kadrlar safini malakasi va saviyasi past kishilar bilan to'ldirilishiga, yuzakilik, qog'ozbozlik kabi nomaqbul illatlarning ildiz otishiga olib keldi. Kishining qobiliyati, madaniy saviyasi va ma'lumot darajasi emas, balki ijtimoiy kelib chiqishi asosiy mezon qilib olindi. Bu hol keyinchalik ta'lim tizimiga salbiy ta'sirini ko'rsatib bordi, kadrlar muammosining paydo bo'lishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatdi. Chunki, ta'lim tizimidan uzoq bo'lgan kishilarga bu soha rivoji ham, uncha qiziqarli emasligi, keyinchalik

ular o'z ishlarini tashlab ketishlariga sabab bo'ldi. Shu yillarda "mehnatkash" qatlamdan kadrlar tayyorlash amaliyoti qaror topib, kadrlar yetishmaslik muammosi bir qadar hal bo'lganday bo'ldi. Lekin yetarli darajada tayyorgarligi bo'lmagan xodimlar ta'lim rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsata olmadi. Ayniqsa, ta'lim sohasida oliy ma'lumotli kadrlar juda ham yetishmas edi. Qisqa muddatli kurslarda tayyorlangan xodimlar esa yetarli darajada bilim bera olmas edi. 1934-yildagi tekshirishlar natijasida birgina, Surxondaryo viloyati Jarqo'rg'on tumanidagi 170ta o'qituvchidan atiga 6tasi oliy ma'lumotli ekanligi aniqlandi. 1930–1931-o'quv yilida O'zbekistonda boshlang'ich maktab o'qituvchilarning 54,8%i boshlang'ich ma'lumotli, 17,9%i qisqa muddatli kurslarni bitirgan, 18,7%i o'rta pedagogik ma'lumotga ega edi[5]. Bundan ko'rinib turibdiki, oliy ma'lumotli o'qituvchilar respublikada boryo'g'i 8,6%ni tashkil qilgan ekan. 1932-yilda Respublika pedagogika o'quv yurtlarida ishlayotgan o'qituvchilarning 72%ini boshlang'ich ma'lumotga ega bo'lganlar tashkil qilgan[6]. Bundan tashqari maktablardagi o'qituvchilarning bilim darajasi past bo'lganligidan ko'pgina maktablarda o'qitish saviyasi talabga javob bermasdi. Lekin bu hol sovet hukumatini qiziqitirmas edi. Chunki, sovet tizimi uchun, ayniqsa, janubiy viloyatlardagi ta'lim tizimi uchun zukko va bilimli kadrlar kerak emas edi. Bu viloyatlarni yetarli darajada kadrlar bilan ta'minlash uchun oliy o'quv yurtlari tarmog'ini ko'paytirish zarur edi. Bu masalaga ham mazkur tuzum tomonidan katta e'tibor berilmadi.

**Xulosa** qilib shuni aytish mumkinki, mazkur davrda sovet mamlakati iqtisodiy hayotida avj olgan avvaldan rejalashtirish usullari, boshqaruvning o'ta markazlashtirilishi, partiyaviy tartibning kuchayishi respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida salbiy iz qoldirganligi hech kimga sir emas. Shuning bilan birga XX asr 30–yillarda sobiq ittifoqda ta'limni qayta qurish jarayoni boshlangan edi.

Sovetlarning ta'lim tizimini qayta qurish borasidagi siyosati ta'lim faoliyatiga ham ta'sir etmasdan qolmadi. Mamlakatda aholini yoppasiga proletarlashtirish, barcha sohalardan ziyolilarni chetlashtirish amalga oshirildi. Bu jarayon ta'lim

sohasini ham chetlab o'tmadi. Talabalar, o'qituvchilar, xodimlar o'qishga, ishga ijtimoiy kelib chiqishiga qarab qabul qilinardi.

Umumiy boshlang'ich ta'limni joriy qilish, "savodsizlik"ni tugatish kabi islohotlar og'ir sharoitda zo'ravonlik bilan amalga oshirildi. O'sha davrda ta'lim tizimi moddiy–texnika bazasini mustahkamlashda talaygina muammolar mavjud bo'lib, bu hol ta'lim tizimiga bevosita jiddiy ta'sir ko'rsatib bordi.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Абдурахмонова Ж.Н. Совет ҳокимиятининг Ўзбекистонда таълим соҳасидаги қатағонлик сиёсати (Самарқанд, Сурхондарё ва Қашқадарё вилоятлари мисолида. 1925–1940 йй). Тарих фанлари илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т.: 2002, 63–бет.
2. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет муштамлакачилиги даврида. – Тошкент., 2000, 387–бет.
3. О'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivi 94–jamg'arma, 5–ro'uxat, 1368–yig'ma jild, 56–varaқ.
4. Абдурахмонова Ж.Н. Совет ҳокимиятининг Ўзбекистонда таълим соҳасидаги қатағонлик сиёсати (Самарқанд, Сурхондарё ва Қашқадарё вилоятлари мисолида. 1925–1940 йй). Тарих фанлари илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т.: 2002, 65–бет.
5. Очилов М. Ўзбекистон комсомолининг умумий мажбурий таълим учун кураши. Т., 1958, 54–бет.
6. О'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivi 94–jamg'arma, 5–ro'uxat, 1368–yig'ma jild, 56–varaқ.
7. Abduraxmanova J.N. XX asrning 1920–1930-yillarida ta'lim tizimidagi kadrlar masalasi. Sohibqiron yulduzi. №1, 2021-yil, 84–87-betlar.
8. Абдурахманова Ж.Н. XX аср 20–30-йилларида Ўзбекистоннинг жанубий вилоятлари таълим тизимидаги ҳолат. Маданият чорраҳалари (электрон журнал). №4.1–жилд, 2020, 36–41-бетлар.
9. Абдурахманова Ж.Н. XX аср 20–йилларида эски усул мактабларига бўлган муносабат. Academic Research in Educational Sciences. Volume 1. Issue 3. 2020. P.1165–1169.